

NEMATODA KASALLIKLARIGA QARSHI ELEKTR IMPULSLI ISHLOV BERISH KURILMASI

Ishlanmaning tavsifi: Hozirgi kunda sabzavot – poliz ekinlari etishtirishga ixtisoslashgan ochiq va yopiq maydonlarda turli kasallik va zararkunandalarning ko‘payishi, dehqonlarimiz uchun qator noqulayliklarni vujudga keltirmoqda. Jumladan: pomidor, bodring ekinlarining gektar hisobidagi hosildorligining pasayib ketishi, kasallik va zararkunandalarga chidamsiz bo‘lib borayotganligi bevosita ular ekiladigan erlarning kasallanish darajasi yuqoriligi bilan izohlanmoqda. SHuning uchun issiqxonalarda ekiladigan pomidor va bodring ekinlarini nematoda bilan zararlangan ildiz poyalariga qarshi ekologik sof, kam harajatli elektr impulsli ishlov berish qurilmasi nematodalarni nobud bo‘lish imkonini yaratadi. Nematoda gijjalari bilan zararlangan pomidor va bodring o‘simliklariga elektr impulsli tok razryadlari yordamida ishlov berish jarayonida quyidagi ta‘sir etuvchi asosiy faktorlar: impuls energiyasi, impuls razryad toki, impuls razryad kuchlanishi, impuls razryadining ta‘sir etish davomiylik vaqtini tashkil etadi.



Afzalliklari: Nematoda bilan zararlangan ildiz poyasiga ishlov berilgandan so‘ng hosildorlikni 1,5 baravargacha oshirish mumkin. Elektr impulsli razryadlari bilan ishlov berilgan er (issiqxona bo‘limlarida) nematoda kasalligi qo‘zg‘atuvchilari va lichinkalarining nazorat varianti (ishlov berilmagan) er uchastkalariga nisbatan 85–90 % ga kamayish imkonini beradi.

Qo‘llanilish sohasi: Dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlar. Sabzavot – poliz ekinlari etishtirishga ixtisoslashgan fermer, dehqon va yakka tadbirkor xo‘jaliklari, yopiq (issiqxona) va ochiq maydonlarda pomidor, bodring, shuningdek boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlari etishtiruvchi xo‘jalik sub’ektlari.

Loyiha mualliflari: TIQXMMI

prof. Toshpo‘latov N

tel.: +99871 237-19-61, faks: +99871 237-54-79, E-mail: admin@tiame.uz

